

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SODIQOVA BAXTIGUL IBODULLAYEVNA

**JON FAULZ IJODIDA POSTMODERNIZMNING FALSAFIY VA ESTETIK
DOMINANTLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Denov – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna

Jon Faulz ijodida postmodernizmning falsafiy va estetik dominantlari 3

Содикова Бахтигул Ибодуллаевна

Философские и эстетические доминанты постмодернизма в творчестве
Джона Фаулза..... 25

Sodikova Bakhtigul Ibodullayevna

"Philosophical and Aesthetic Dominants of Postmodernism in the Works
of John Fowles"..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SODIQOVA BAXTIGUL IBODULLAYEVNA

**JON FAULZ IJODIDA POSTMODERNIZMNING FALSAFIY VA ESTETIK
DOMINANTLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Denov – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2495 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Nargiza Alimovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Siddikova Iroda Abduzuxurovna

filologiya fanlari doktori, professor

Faleyeva Anastasiya Vadimovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; email:uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “____” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida postmodernizm G'arbiy Yevropa tafakkuridagi asosiy an'analarning tub o'zgarishlarini aks ettiruvchi muhim oqim sifatida qaraladi. Postmodernizm yangi turdagi "ong ontologiyasi"ni ifoda etib, klassik paradigmalarga qarshi turadi va falsafiy talqin uchun o'ziga xos nutq shaklini taklif qiladi. XX-XXI asrlarda adabiy oqim sifatida shakllangan postmodernizm dunyoni qabul qilishning yangi uslubiga aylangan. Kelajakning mavhumligi, global va texnologik inqirozlar fonida inson yo'lini yo'qotishi, apokaliptik kayfiyatning yuzaga kelishi, shuningdek, muloqot texnologiyalarining tez rivojlanishi va global jamiyatda madaniy bag'rikenglikning ortishi postmodernizm ta'sirining davom etayotganligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois, tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy adabiyotshunoslikda postmodernizmning adabiyotdagi o'rne va mazmunini nazariy, tarixiy hamda adabiy-estetik nuqtai nazardan chuqur o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ingliz postmodern yozuvchisi Jon Faulz ijodi alohida ahamiyatga ega. Uning asarlarini tahlil qilish postmodernizm oqimi doirasida yaratilgan badiiy asarlarning an'anaviy janr chegaralaridan tashqarida, turli janr elementlarini uyg'unlashtirganligini ko'rsatib, ularni o'rganish metodlarini boyitishga xizmat qiladi. Shu sababli, Jon Faulz ijodini tadqiq etish adabiyotshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Faulz romanlarining falsafiy va estetik dominantlari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagani, ushbu voqelik atrofidagi ko'plab bahs-munozaralar hanuzgacha to'xtamaganligi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotshunosligida jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kelajak avlodning tarbiyasi ular o'qiydigan kitoblarga chambarchas bog'liq. Shu boisdan postmodernizm oqimining rivojlanish bosqichlarini belgilash, zamonaviy badiiy asarlarini tahlil qilishdagi ahamiyatini aniqlash va postmodern adiblarning poetik mahoratini yoritish muhim sanaladi. Postmodern adabiyoti ong o'zlikni anglash xususiyatiga ega bo'lgani sababli yosh kitobxonlarni qiziqarli syujet orqali tarbiyalash vazifasini ham amalga oshiradi.

Ushbu dissertatsiya natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorida kitob mutolaasi hamda kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida "Eng faol kitobxon maktab", "Eng faol kitobxon mahalla",

“Eng faol kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish borasida olib boriladigan ishlari¹ tizimli holatda amalga oshirilishi, 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 19-maydagi PQ–5117-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga 2020-yilning 24-yanvaridagi Murojaatnomasi hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida postmodernizmning kelib chiqishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari G‘arbning yetakchi olimlari: R. Appignanesi, J. Baudrillard, P. Brooker, Ch. Butler, L. Cahoon, T. Eagleton, B. Edwards, C. Garratt, I. Hassan, L. Hutcheon, J. Lyotard, G. Matthews, B. McHale, L. Platt, B. Nicole, J. Powell, P. Kolesnikoff, E. Waugh² tomonidan tadqiq qilingan, Jon Faulzning ijodi esa P. Childs, A. Dalton, V. Guignery, M.Moseley³ tomonidan adabiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

¹ Mirziyoyev Sh.M. PQ–3271-son 13.09.2017. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3338600> (murojaat sanasi: 13.09.2021).

² Appignanesi R., Baudrillard J. Simulacra and Simulation (Translated by Glaser Sh.F.) . – Michigan. University of Michigan Press., 1994. – P. 3.; Baudrillard J. The Consumer Society. – London. Sage Publications, 1998. – P. 9.; Brooker P. Modernism / Postmodernism. – USA. Routledge, 2014. – P. 22.; Butler Ch. Postmodernism. A Very Short Introduction. – NY. Oxford University Press, 2002. – P. 3.; Cahoon. L.E. “From Modernism to Postmodernism: An Anthology. – USA: Blackwell Publishers, 1996. – P. 19.; Eagleton T. The Illusions of Postmodernism. – UK: Blackwell Publishers Ltd., 1996. – P.7.; Edwards B. Theories of Play and Postmodern Fiction. – New York and London: Garland Publishing, Inc., 1998. – P. 17.; Garratt C. Introducing Postmodernism. – UK: Icon Books Ltd., 1999. – P. 4.; Hassan I. The Dismemberment of Orpheus Toward a Postmodern Literature. – US: University of Wisconsin Press., 1982. – P. 261.; Hassan I. The Postmodern Turn. Essays in Postmodern Theory and Culture. – US: Ohio State University Press., 1987. – P. 85-86.; Hassan I. The Question of Postmodernism // Performing Arts Journal, 1981. Vol. 6. No. 1. – P. 30-37 // <https://doi.org/10.2307/3245219>; <https://www.jstor.org/stable/3245219>. – P. 31.; Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. – USA: Routledge, 1988. – P. 9.; Lyotard J.F. Postmodern Condition. A report on Knowledge. Translated by Bennington G., Massumi B. – UK: Manchester University Press, 1984. – P. 3.; Matthews G. Ethics and Desires in the Wake of Postmodernism: Contemporary Satire. – UK: Bloomsbury Academic, 2012. – P. 12.; McHale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism. – UK: Cambridge University Press, 2015. – P. 15.; McHale B., Platt L. The Cambridge History of Postmodern literature. – USA: Cambridge University Press, 2016. – P. 43.; McHale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism. – UK: Cambridge University Press, 2015. – P. 15.; Nicole B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 51.; Powell J. Postmodernism. For Beginners. – NY.: Writers and Readers, 1998. – P. 4.; Metafiction. – GB. The British Library, 2011. – P. 31.; Waugh P. Metafiction. Theory and Practice of Self-Conscious Fiction. – London: Routledge, 1984. – P. 2

³ Childs P. Julian Barnes. Contemporary British novelists. – UK: Manchester University Press, 2011. – P. 7.; Dalton A.G. Julian Barnes and the Postmodern Problem of Truth, 2008. – P. 47 //

Rus olimlari I. Avramenko, N. Bochkareva, L. Bratuxina, V. Byachkova, K.Zagorodneva, I. Novokreshennix, B. Proskurnin, S. Strinyuk, I. Suslova, O.Djumaylo, N. Mankovskaya, N. Kireyeva, M. Lipovetskiy, I. Skoropanova, V.Kuritsin, N. Lihina⁴ tomonidan postmodern adabiyoti, uning ingliz adabiyotiga xos xususiyatlari va Jon Faulz romanlarining badiiyati tadqiq etilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida so'nggi o'n yillarda postmodernizm yo'nalishida betakror san'at asari yaratayotgan adiblar ijodiga qiziqish yanada ommalashdi. Uning tadqiqiga yo'naltirilgan ilmiy-ijodiy izlanishlar ko'lami kengayib, S. Quronov, U.Hamdami, Q. Yo'ldoshev, M. Nizamova, D. Asadova⁵ning maqola va o'quv qo'llanmalarida modernizm hamda postmodernizm kabi oqimlar, ularning xususiyatlari, postmodern adabiyot namoyandalari hamda ularning postmodern asarlaridagi asosiy g'oyalari haqida muhim nazariy ma'lumotlar berilgan.

Ushbu tadqiqotlarni o'rganish natijasida zamonaviy ingliz adabiyotining postmodernisti Jon Faulzning ijod namunalaridagi badiiyat va falsafasi hali yaxlit estetik jihatdan to'liq o'rganilmagani aniqlandi. Postmodernizm adabiyotda ommalashganiga yarim asrdan ko'proq vaqt bo'lgan bo'lishiga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligiga oid lug'at va kitoblarda uning xususiyatlari keng doirada tahlil qilinmagan. Mazkur tadqiqot Jon Faulz ijodidagi falsafiy va estetik dominantlarni aniqlash orqali uning ingliz postmodern adabiyotidagi muhim o'rnini yoritib beradi.

Tadqiqot zamonaviy adabiyotshunoslikka uning nazariy va amaliy jihatlarini kengaytirish hamda postmodern adabiyotni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Xorijiy til va adabiyot" kafedrasining ustuvor ilmiy

https://www.julianbarnes.com/resources/archive/Abigail_Dalton_Thesis.pdf; Moseley M. Understanding Julian Barnes. – US: University of South Carolina, 1997. – P. 11.; Guignery V., Roberts R. Conversations with Julian Barnes. – US: The University Press of Mississippi, 2011. – P. 11.; Guignery V. The Fiction of Julian Barnes. – England: Palgrave Macmillan Ltd., 2006. – P. 1.

⁴Авраменко И.А., Бочкарева Н.С., Братухина Л.В., Бячкова В.А., Загороднева К.В., Новокрешенних И.А., Проскурнин Б.М., Стринюк С.А., Суслова И.В. История зарубежной литературы. Современная английская литература. – Перм: ПГНИУ., 2018. – С. 3.; Киреева Н. В. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва: Флинта, 2014. – С. 4.; Манковская Н.Б. Эстетика постмодернизма. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2000. – С. 317.; Липовецкий М.Н. Русский постмодернизм. (Очерки исторической поэтики). Монография / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 1997. – 317 с. ISBN 5-7186-0363-4; Скоропанова И.С. Русская литература XX века как эстетический и социокультурный феномен // Славянские языки и культуры в современном мире. – М.: МГУ, 2009. – С. 407-408.; Курицын В.Н. "Книга о постмодернизме". – Екатеринбург, 1992. – 128 с. Тир. 300 экз.; Лихина Н.Е. Актуальные проблемы современной русской литературы: Постмодернизм. Учеб. пособ. / Калинингр. ун-т. – Калининград, 1997. – С. 59.

⁵Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va Postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 51.; Quronov D. Postmodern olamda manzil izlab. URL: <https://quronov.uz/postmodern-olamda-manzil-izlab>. – Toshkent: Tafakkur, 2013. 3-son. Murojaat sanasi 13.04.2024.; Yo'ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar. URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/qozoqboy-yuldosh-postmodernizm-mohiyat-ildizlar-va-belgilar> Murojaat sanasi 01.04.2024.; Низамова М. "Артур и Джордж" Дж. Барнса как опыт постмодернистской литературной биографии // Сборник НУУз. – Т., 2021. – № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/artur-i-dzhordzh-dzh-barnsa-kak-opyt-postmodernistskoy-literaturnoy-biografii> (Murojaat sanasi: 15.05.2024.); Асадова Д.Ф. Постмодернизм концепцияси ва тамойиллари // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences (E), 2023. June. – № 3 (6). – B. 184-202.

yoʻnalishlari doirasida bajarilgan hamda mazkur oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jon Faulz ijodida postmodernizm adabiy oqimining falsafiy va estetik dominantlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

postmodernizmning adabiyotda shakllanishiga taʼsir qilgan tarixiy va nazariy omillarni tadqiq etish hamda ingliz postmodern romanlarining badiiy-estetik va gʻoyaviy-falsafiy xususiyatlarini aniqlash;

Jon Faulz ijodining falsafiy-estetik dominantlarni tahlil qilish hamda postmodernizm va ekzistensializm oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash;

“Kolleksiyachi”, “Afsungar” va “Qurtquloq” romanlari asosida shaxs, jamiyat va tafakkur oʻrtasidagi ziddiyatlar hamda shaxsiyat va erkinlik muammolarini tahlil qilish;

adibning “Fransuz leytenantining ayoli” va “Daniel Martin” romanlarida tarixiy metadabiyotni oʻrganish va ong-oʻzlikni anglash masalalarining badiiy ifodasini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jon Faulzning ijodi hamda “Kolleksiyachi” (“The Collector”, 1963), “Afsungar” (“The Magus”, 1965), “Fransuz leytenantining ayoli” (“The French lieutenant’s Woman”, 1969), “Qurtquloq” (“A Maggot”, 1985) va “Daniel Martin” (“Daniel Martin”, 1977) romanlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Jon Faulzning romanlarida postmodernizmning badiiy-estetik va gʻoyaviy-falsafiy dominant xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotda qoʻllangan metodlar: tadqiqot davomida madaniy-tarixiy, biografik, funksional-taʼrifiy va germeneytik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Ingliz postmodern adabiyotining shakllanish jarayoniga oid asosiy tarixiy-nazariy omillar tahlili asosida uning universal badiiy-estetik xususiyatlari – fragmentar rivoya usuli, intertekstualik, istehzo va metanasr, shuningdek, dekonstruksiya, madaniy plyuralizm va mutlaq haqiqatga nisbatan skeptitsizmni oʻz ichiga olgan gʻoyaviy-falsafiy tamoyillari aniqlangan;

Faulz romanlarining falsafiy va estetik dominantlarini tadqiq etish asosida postmodernizm va ekzistensializm paradigmaları oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik aniqlanib, bu bogʻliqlik erkinlik va axloqiy masʼuliyat mavzularining sintezida, shuningdek, maʼno izlashning subyektiv jarayoni va ijtimoiy cheklovlar oʻrtasidagi dialektik munosabatda namoyon boʻlishi ilmiy asoslangan;

Jon Faulzning “Kolleksiyachi”, “Afsungar” va “Qurtquloq” romanlaridagi individual gʻoyaviy-falsafiy dominantlar, yaʼni shaxsiy erkinlik, ekzistensial izlanishlar, maʼnaviy javobgarlik, refleksiya, irratsionallik, tarixiylik va mistitsizmning badiiy-estetik tahlili asosida ularning postmodern estetikaga xos vositalar boʻlgan oʻzgaruvchan kompozitsiya va rivoyachi, intertekstualik, koʻp finalilik, istehzo hamda mualliflik refleksiyasi orqali ifodalangani dalillangan;

“Fransuz leytenantining ayoli” va “Daniel Martin” romanlari tahlili asosida ularda o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitda shaxs kamoloti, tarixiy haqiqat va reallikning nisbiy talqini, shuningdek, gender masalalari kontekstida individual ong hamda “men”ni anglash jarayoni murakkab kompozitsiya, polifonik rivoya, intertekstuallik, psixologik portret va ichki monolog, hamda zamon va makonning o‘zgarishi kabi badiiy shakl vositalari orqali yoritilgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

postmodern oqimining taraqqiyot bosqichlari, badiiy estetikasi hamda uning ingliz adabiyotida yaratilgan nasriy asarlardagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, bu adabiy qonuniyatlar shu kabi asarlarni tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi;

chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ingliz adabiyoti kabi fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

adibning “Kolleksiyachi” romanida shaxsiyatning g‘ayrinsoniylik xususiyatlari tasviri, shuningdek, “Afsungar” romanida ijodkor mafkuraviy erkinlik masalasini ifodalashda asarning mazmuniy va g‘oyaviy-badiiy elementlari namoyon bo‘lganligi, uning “Fransuz leytenantining ayoli” asarida “tarixiygrafik metaadabiyot”da shaxs, ong, o‘zlikni anglash masalasi neoviktorian tarixiy rakurs tasviri orqali, “Qurtquloq”da esa shaxs, ijtimoiy me‘yorlar, ratsionallik va tasavvuf hamda “Daniel Martin” romanida o‘zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy muhitda shaxs takomili masalasi doirasida namoyon bo‘lganligi yoritib berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan romanlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, yaxlit estetik hamda mifopoetik tahlil usullari bilan asoslangani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan xulosalar jahon adabiyotshunosligida dolzarb bo‘lgan postmodernizmning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi mavjud ma‘lumotlarni boyitadi va ilmiy tadqiqot ishlarida keng qo‘llash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa asarlar poetikasi va nazariy xususiyatlarini aniqlashda manba sifatida xizmat qila olishi hamda xulosalaridan “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Adabiy-badiiy tahlil metodlari”, “Adabiy tanqidchilik tarixi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” hamda “Adabiy oqimlar evolyutsiyasi” kabi fanlar bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda, shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, majmua, lug‘atlar yaratishda, doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jon Faulz ijodida postmodernizmning falsafiy va estetik dominantlari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Ingliz postmodern adabiyotining shakllanish jarayoniga oid asosiy tarixiy-nazariy omillar tahlili asosida aniqlangan uning universal badiiy-estetik xususiyatlari – fragmentar rivoya usuli, intertekstualik, istehzo va metanasr, shuningdek, dekonstruksiya, madaniy plyuralizm va mutlaq haqiqatga nisbatan skeptitsizmni o‘z ichiga olgan g‘oyaviy-falsafiy tamoyillariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori N.Maxmudova rahbarligida 2020-2022-yillarda “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida Britaniya Kengashi (British Council) ko‘magida amalga oshirilgan “English as a school subject” (1683580) nomli xalqaro ilmiy tadqiqot loyihasida samarali foydalanilgan (O‘zDJTMU ma’lumotnoma №26/785, 2024-yil 11-dekabr). Natijada, olingan ma’lumotlar loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Faulz romanlarining falsafiy va estetik dominantlarini tadqiq etish asosida postmodernizm va ekzistensializm paradigmalari o‘rtasidagi aniqlangan uzviy bog‘liqlik, bu bog‘liqlik erkinlik va axloqiy mas’uliyatning asosiy mavzulari sintezida, shuningdek, ma’no izlashning subyektiv jarayoni va ijtimoiy cheklovlar o‘rtasidagi dialektik munosabatda namoyon bo‘lishiga doir natijalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori M.Galiyeva rahbarligida 2022-2023-yillarda “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida bajarilgan Erasmus+ dasturining ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419 nomli xalqaro amaliy ilmiy tadqiqot loyihasida samarali foydalanilgan (O‘zDJTMU ma’lumotnoma №26/783, 2024-yil 11-dekabr). Natijada, ushbu ma’lumotlar loyiha mazmunini boyitdi va ishtirokchilarning ingliz postmodern romani sotsiomadaniy tabiati haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan;

Jon Faulzning “Kolleksiyachi”, “Afsungar” va “Qurtquloq” romanlaridagi individual g‘oyaviy-falsafiy dominantlar, ya’ni shaxsiy erkinlik, ekzistensial izlanishlar, ma’naviy javobgarlik, refleksiya, irratsionallik, tarixiylik va mistitsizmning badiiy-estetik tahlili asosida ularning postmodern estetikaga xos vositalar bo‘lgan o‘zgaruvchan kompozitsiya va rivoyachi, intertekstualik, ko‘p finalilik, istehzo hamda mualliflik refleksiyasiga doir ilmiy xulosalarga O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori N.Maxmudovanning 2024-yilda chop etilgan History of Literary Criticism nomli darsligida (ro‘yxatga olish raqami 275-10) yaratilgan adabiyotshunoslikka oid nazariy materiallar hamda o‘quv-uslubiy majmua yozilishida murojaat qilindi (Ma’lumotnoma №26/784, buyruq №275-10, 2024-yil 11-dekabr). Natijada, postmodernizm hamda uning XX asr ikkinchi yarmidagi

ingliz romaniga ta'siri masalasiga oid mavzular dolzarblashtirildi va metodologik jihatdan takomillashtirildi;

“Fransuz leytenantining ayoli” va “Daniel Martin” romanlari tahlili asosida ularda o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitda shaxs kamoloti, tarixiy haqiqat va reallikning nisbiy talqini, shuningdek, gender masalalari kontekstida individual ong hamda “men”ni anglash jarayoni murakkab kompozitsiya, polifonik rivoya, intertekstuallik, psixologik portret va ichki monolog, hamda zamon va makonning o‘zgarishi kabi badiiy shakl vositalar bilan bog‘liq ilmiy xulosalar O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasi “Munavvar tong” teleko‘rsatuvi materiallari mazmunini boyitdi (Ma’lumotnoma №01-16/701, 2023-yil 26-iyul). Natijada, keng auditoriyaning postmodern adabiyot haqidagi tasavvurlari kengaydi va XX asr ikkinchi yarmidagi ingliz romanining ijodiy o‘ziga xosligi chuqurroq anglashildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 9 tasi respublika jurnallarida va 5 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 124 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo‘llanilgan metodlar, obykti va predmeti tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ingliz postmodern adabiyotining shakllanishi**” deb nomlangan. Ushbu bobning “*Postmodernizm adabiyotining nazariy asoslari*” nomli birinchi faslida “postmodern” terminining turli ta’riflari, etimologiyasi, lug‘aviy ma’nolari haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda postmodern adabiyotiga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, mazmuniy va shakliy belgilariga ega bo‘lgan mustaqil oqim sifatida qaraladi. Postmodernizm adabiyoti bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan,

jumladan, fransuz mutafakkirlari J. Derrida, J. Liotar, M. Fuko⁶ va boshqa g'arb adabiyotshunoslari postmodernizm falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar⁷, rus olimlari Ye. Kolodinskaya, O. Djumaylo, O. Tolstix, N. Solovyeva, Yu. Rayneke⁸ va boshqalar ingliz adabiyotida postmodernizm oqimining tajridiy taraqqiyoti, viktorian roman an'analari, badiiy va tarixiygrafik xususiyatlariga o'z e'tiborlarini qaratishgan. Realizmning aksi sifatida maydonga chiqqan "modernizm" esa XIX asr oxiri – XX asrda vujudga kelgan qator "izm"lar (simvolizm, futurizm, surrealizm, ekzistensializm va absurd adabiyoti, "ong oqimi" adabiyoti, giperrealizm va b.)ni ham o'z ichiga oladi.

Mutaxassislar XX asrning o'rtalaridan "modernizm" o'rnini "postmodernizm" egallaganini ta'kidlaydilar. Biroq hali hanuz bu adabiy hodisalar to'liq nazariy tadqiq etilganicha yo'qki, shu boisdan, bu masaladagi gapni muxtasar qilib, aytilganlarning o'zi bilan cheklanamiz⁹. O'zbek adabiyotshunosligida "modernizm va modern adabiyoti"¹⁰ hamda "postmodernizm"¹¹ adabiyoti atamallari bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

O'zbek adabiyotida postmodern izlanishlar olib borish, ayniqsa, nasrda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. O. Muxtor, X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul, R.Rahmat, I. Sulton, M. Karim, Sh. Ahmedov, U. Hamdam va M. Xolbekov kabi yozuvchilarning ijodida postmodernizm oqimining turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. M. Xolbekovning postmodernizmi¹² "Postmodernizmning asosiy konsepsiyalari hisoblangan "muloqot murakkabligi", "ongning matndagi in'ikosi", "intermatnlilik", "muallif o'limi", "maktub sarguzashtlari" va boshqa shunga o'xshash g'oyalar poststrukturalizm va dekonstruktivizm tamoyillariga tayanadi. Ular, shuningdek, strukturalizmga qarshi ta'sir sifatida shakllanib, postmodernizmning o'ziga xos metodologik negizini yaratadi". M. Xolbekovning fikriga ko'ra, XX asr g'arb

⁶Постструктуралистские интерпретации М.Фуко, Ж.Деррида, Ж.-Ф.Лиотара. URL: https://studme.org/197301184904/filosofiya/poststrukturalistskie_interpretatsii_fuko_derrida_zhf_liotara#584 (murojaat sanasi – 22.11.2023)

⁷Бобур Н. Чарльз Диккенсинг икрори. URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/charlz-dikkensning-igrori/> (murojaat sanasi – 15.05.2022)

⁸ Колодинская Е. В. Историческое прошлое как предмет высказывания: современная англоязычная проза и постмодернистская историография (Г.Свифт, Дж.Барнс). Дис. кандидата филол. наук: 10. 01. 03 / Е.В.Колодинская. – М., 2004. – С. 139.; Джумайло О.В. За границами игры: английский постмодернистский роман 1980-2000 / О.В.Джумайло // Вопросы литературы, 2007. – № 5. – С. 7-45.; Толстых О.А. Английский постмодернистский роман конца XX века и Викторианская литература: интертекстуальный диалог. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Екатеринбург, 2008. – С. 24.; Соловьева Н. А. (2006). Английский роман в эпоху постмодерна. Человек: Образ и сущность. Гуманитарные аспекты, (1), 136-154. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/angliyskiy-roman-v-epohu-postmoderna> (murojaat sanasi: 13.06.2023).; Райнеке Ю. С. Исторический роман постмодернизма и традиции жанра (Великобритания, Германия, Австрия) : дис. ... кандидата филол. наук : 10. 01. 03 / Ю. С. Райнеке. – М., 2003. – С. 211.

⁹ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2010. – B. 231.

¹⁰ Холбеков М. //Бадий адабиётда модернизм тавсифи (2011)// "Ёшлик" журналы, 2011-йил, 3-сон. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2011-sp-1883012986/>

¹¹ Намдамо U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: – Akademnashr, 2020. – B. 53.

¹² Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари.постмодернизм адабиёти тамойиллари URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-modern-adabiyoti-manzaralari-10.html> (мурожаат санаси: 12.02.2022)

modernizm adabiyotining bir nechta o'lovcholari mavjud. Darhaqiqat, postmodern fikrlash uslubining paydo bo'lishi G'arbning madaniy o'zini o'zi anglashining rivojlanishidagi ma'lum odatlar bilan bog'liq va G'arbiy Yevropa tafakkurining asosiy an'analaridagi tub o'zgarishlarni ham ifodalaydi¹³.

Postmodernistik tafakkur uslubining shakllanishi G'arb madaniy o'zligini anglash jarayonida yuzaga kelgan barqaror an'ana va odatlar bilan belgilanadi hamda shu bilan birga, G'arbiy Yevropa intellektual an'anasining fundamental tamoyillarini tubdan qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Qator xos mavzular va badiiy usullar asarlarni postmodernizm davriga aniq ravishda mansub etishga imkon beradi. Yuqorida muhokama qilingan tushunchalar, odatda, o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi: masalan, metaproza va pastish ko'pincha murakkab darajali kinoyani yuzaga keltirish uchun birgalikda qo'llanadi. Bunda an'anaviy hikoya qilishning avtoriteti izdan chiqariladi va o'quvchining matnga nisbatan tanqidiy idrokini rag'batlantiriladi.

Postmodernizm nazariyasi bo'yicha turli manbalarni ko'rib chiqish orqali biz postmodern asarlarning asosiy mavzuviy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin, degan xulosaga keldik:

1-jadval.

Ingliz postmodernizmining universal xususiyatlari



1) San'at va adabiyotga doir mavzular. Mualliflar ko'pincha o'zlaridan oldingi davrda ijod qilgan yozuvchilarning hayot yo'lini qayta yoritadilar. Masalan,

¹³ Холбеков М. Бадий адабиётда модернизм тавсифи. – Ёшлик журнаги, 2011- йил, 3-сон. URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2011-sp-1883012986/>(мурожаат санаси: 15.05.2023)

Piter Akroydning “Oskar Uayldning so‘nggi va’dasi” (“*The Last Testament of Oscar Wilde*”) – Oskar Uayldning xayoliy kundaligi tarzida yozilgan kitob bo‘lib, uning hayoti va ichki kechinmalari haqida uydirilgan voqealarni o‘z ichiga oladi. “Milton Amerikada” (“*Milton in America*”) asarida esa Jon Miltonning hech qachon Amerikada bo‘lmaganiga qaramay, uni Amerikada yashayotgan tarzda tasvirlaydi, bu bilan muallif o‘sha davr voqeliklarini o‘z tasavvuri bilan qayta quradi. Antonia Syuzan Bayettning “Egallash” (“*Possession*”) asarida esa XIX hamda XX asrda yashagan ikki juftlikning sevgi hikoyalari o‘rtasidagi parallellik va bog‘liqlikni ko‘rish mumkin, bu orqali muallif o‘tgan davrlar bilan zamonaviylik o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi¹⁴;

2) Tarixni qayta talqin etish masalasi esa Grem Sviftning “Suv o‘lkasi” (“*Water Land*”) romanida uchraydi; “Bu dunyodan tashqarida” (“*Out Of This World*”) asarida esa otaning bomba yasagani, keyin o‘g‘lining xarobalarni suratga olgani haqida hikoya qilinadi; Ian Makyuanning “Qora itlar” (“*The Black Dogs*”) romani Ikkinchi jahon urushi davridagi Xolokostda odamlarning qirg‘in qilinishi voqealari tasvirlanadi¹⁵;

3) Feminizm va gender muammolari Fey Uyeldonning “Margaret Drabblening ayol do‘stlari” (“*Female Friends Margaret Drabble*”), “Oltin saltanatlar” (“*The Realms of Gold*”), shuningdek, Aniter Bruknerning “Hayotning boshlanishi” (“*A Start In life*”), “Hotel de Luck”¹⁶ kabi romanlarida keng yoritilgan;

4) Etnik paradigmaning kengayishi¹⁷ – keyingi paytlarda Britaniyaning migrant yozuvchilari ingliz adabiyotiga kirib kelgani va ingliz tilidagi adabiyot tushunchasini anglatadi (Kadzuo Ishiguro, Salmon Rushdiye, Ben Okri);

5) Apokaliptik kayfiyat – XX asrning so‘nggi o‘n yilliklaridagi Britaniya adabiyotining ko‘plab asarlariga o‘zboshimchalik bilan singib ketganligini ifodalaydi. Postmodern san‘at asarlari dunyoning betartib (xaos)ligi, boshboshdoqligi, o‘tkinchi hamda anglamsizligidan iborat manzarasini berish uchun ko‘proq tasavvur, tush, ongsizlik singari holatlarni o‘z tasvir obyekti va vositasiga aylantiradi¹⁸;

6) Inson psixologiyasi va ong osti. XX asr psixologiya asri sifatida keng yoyila boshladi. Inson tabiati va qalbining ichki dunyosiga qiziqish olimlar hamda faylasuflar, shuningdek, yozuvchilar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ldi (Deniel Keysning “Algernon uchun atalgan gullar” asari)¹⁹;

7) Mavjudlik falsafasi qisman pozitivistlarning ma’lum narsani his qilish tajribasi yoki ratsionalizatsiya idroki orqali miqdoriy yoki ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa bilan cheklash afzalligiga qarshi reaksiya sifatida qaralishi mumkin. Bilish, shaxsiy mavzuni hodisaning ilmiy izlanishlariga (masalan, zamon va makon kabi) kiritishga urinish orqali ekzistensialistlar bu hodisalarga sifat, insoniy

¹⁴ Félix G. The Postmodern Impasse in The Guattari Reader. – Blackwell Publishing, 1996. – P. 109-113.

¹⁵ Kirby A. The death of postmodernism and beyond. – Philosophy, 2006. – P. 126

¹⁶ Lyotard J.F. The postmodern condition: A report on knowledge. – U of Minnesota Press, 1984. – P. 73.

¹⁷ Muller H. Reflections on post-modernism. – NewGermanCritique, 1979. – P. 55-57.

¹⁸ Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshev M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016. – B. 270.

¹⁹ Newman C. The post-modern aura: The act of fiction in an age of inflation. – Salmagundi, 1984. – P. 3-199.

o'ldiruv qo'shadilar. Mavjudlik falsafasining markazida "obyektiv" va "subyektiv" aks ettirishni tekshirish yotadi. Obyektiv fikrlash obyektiv haqiqatga olib kelsa-da, mavzuni ham mensimaydi. Darhaqiqat, obyektiv, ilmiy haqiqat subyektivni mensimaslik bilan belgilanadi va tasdiqlanadi²⁰.

Postmodernizm ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda g'arb madaniyatining o'ziga xos tomonlari, jamiyatlarning illatlarini va shu davrga xos falsafiy, nazariy va adabiy qarashlarini o'zida mujassam etgan keng qamrovli oqim sanaladi. Postmodernizm adabiyoti shakliy murakkabligi va mazmunan rang-barangligi tufayli tahlil qilishda aniq bir universal yondashuv yo'sinlarini ishlab chiqishdan ko'ra, har bir postmodern yozuvchi ijodiga alohida estetik yondashish muhimdir.

Bobning ikkinchi fasli "*Ingliz postmodern romanlarining badiiy-estetik xususiyatlari*" deb nomlanib, unda postmodern adabiy harakati bilan bog'liq bo'lgan bir qancha taniqli ingliz yozuvchilari, ularning badiiy ifoda vositalari haqida fikr bildirilgan. Buker mukofotiga sazovor bo'lgan Salmon Rushdi "Yarim tun bolalari" ("Midnight's Children", 1981) romani bilan tanilgan bo'lib, u o'z asarlarida ko'pincha irfoniy realizm, intertekstuallik va metaadabiyot kabi postmodern unsurlarni o'z ichiga oladi. Anjela Karter asarlari o'zining fantastik tabiati bilan ajralib turadi. Uning "Sirkdagi tunlar" ("Nights at the Circus", 1984), "Qonli xona va boshqa hikoyalar" ("The Bloody Chamber and Other Stories", 1979) kabi asarlarida ertaklar, gotika fantastika va feminizm elementlari aralashib, an'anaviy hikoya tuzilmalari va gender rollariga qarshi kurashadi. Julian Barnes tarix, xotira va hikoyalarni o'rganishi bilan mashhur. Uning "Floberning to'tiqushi" ("Flaubert's parrot", 1984) romani o'zida metaadabiyot elementlarini mujassam etgan bo'lib, badiiy adabiyot va biografiya o'rtasidagi chegaralarni xiralashtiradi. Man Booker mukofotiga sazovor bo'lgan ingliz yozuvchisi J.Barnes "The Sense of an Ending" (2011) kitobining muallifidir. Jeanette Vinterson asarlari, ko'pincha mif, ertak va postmodern tajriba elementlarini birlashtiradi. Uning "Apelsinlar yagona meva emas" ("Oranges are Not The Only Fruit", 1985) romani jinsiy hayot, din va o'ziga xoslik haqidagi an'anaviy tushunchalarga qarshi kurashuvchi yarim avtobiografik asar hisoblanadi. Grem Sviftning asarlari ko'pincha xotira, vaqt va tarix mavzularini o'rganadi. Uning "Suv o'lkasi" ("Waterland", 1983) romani chiziqli bo'lmagan hikoya tuzilmasidan foydalanadi, shaxsiy va jamoaviy tarix o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish uchun bir nechta istiqbollarni o'z ichiga oladi. Devid Mitchellning "Bulutli atlas" ("Cloud Atlas", 2004), "Suyak soatlari" ("The Bone Clocks", 2014) kabi romanlarida bir nechta janrlar, rivoyatlar va vaqt davrlari aralashgan. Uning asarlarida, ko'pincha murakkab syujet tuzilmalari va matnlararo murojaatlar mavjud bo'lib, postmodernizmning parchalanish va o'zaro bog'liqlikka bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

Bobning "*Jon Faulz ijodining adabiy-falsafiy asoslari*" deb nomlangan uchinchi faslida "Faulzshunoslar" adibning serqirra ijodini turli rakurslardan tadqiq

²⁰ Perry A. The Origins of Postmodernity. – London: Verso, 1998. – P. 88.

etishganligi, ayrim munaqqidlar maullifning individual uslubi haqida fikr bildirishganligi haqida soʻz yuritiladi. Masalan, Jeyms Acheson Faulzning “Kolleksiyachi” (“The Collector”), “Afsungar” (“The Magus”) va “Fransuz leytenantining ayoli” (“The French Lieutenant’s Woman”) kabi yirik romanlarida adibning innovatsion hikoya usullarini iroda, erkinlik, haqiqat tabiati kabi mavzularni ochib berishdagi badiiy vazifasiga oʻz eʼtiborini qaratgan²¹.

Ushbu faslda Mariadele Bokkardi, Malkolm Bredberi va Jon Faulz kabi mualliflarning asarlariga eʼtibor qaratilib, zamonaviy Britaniya romaniga tanqidiy baho berilgan. Bokkardi oʻz asarlarida Faulz va boshqa yozuvchilarning ijodida tarixiy, falsafiy va metaadabiyot elementlarini uygʻunlashtirib, romanlarida janr chegaralarini belgilashga doir masalalarni tahlil qilishga uringan²². Bredberi Jon Faulzning XX asr Britaniya adabiyotidagi oʻrnini tadqiq etib, adabiy eksperiment va postmodernistik uslublarning adib ijodida qoʻllanilishiga doir fikrlarini bildirgan²³. Taniqli yozuvchi va tanqidchi A.S.Byatt Jon Faulzning romanlarini chuqur tahlil qiladi, xususan, uning mistikadan foydalanishi, haqiqat va fantastika oʻrtasidagi munosabatlarni yoritib beradi²⁴. Jon Faulz kabi faylasuf va yozuvchi sanalgan Iris Merdok, adib yozgan madaniy va intellektual kontekst haqidagi qimmatli fikrlarini taqdim etadi. Merdok zamonaviy dunyoda sanʼat, falsafa va metafizikaning rolini tahlil qilish orqali Faulzning romanlarida ushbu mavzularni tushunish uchun foydali asos yaratadi²⁵.

Postmodernizm va ekzistensializm mustaqil ilmiy tushunchalar boʻlsa-da, ularning oʻrtasida mustahkam aloqadorlik mavjudligi haqida ingliz, rus va oʻzbek olimlari oʻz fikrlarini bildirishgan. XX asr oxiridagi Gʻarbiy Yevropa adabiyoti “mutlaqo umidsizlik” davridagi inson hayotining muhim masalalariga bagʻishlangan boʻlib, postmodern matnlarda ekzistensializmning badiiy tajribasini keskin namoyon qildi. Ekzistensializmdan postmodernizm individual ong fojiasini oʻzlashtirdi, u, birinchi navbatda, umuminsoniy absurdlik va betartiblik holatini, chidab boʻlmas yolgʻizlik tuygʻusini, borliqning haqiqiylikiga shubhani boshdan kechiradi. Xuddi ekzistensializmdagi kabi postmodernizm ham adabiyot va falsafa, hujjat va afsona, oʻyin va haqiqat oʻrtasidagi chegaralar xiralashgan²⁶. Postmodernizm, ekzistensializm falsafasidan individual ong fojiasi haqidagi tasavvurni meros qilib olib, uni oʻz badiiy-falsafiy konsepsiyasida qayta talqin qiladi. Bu fojia, avvalo, universal absurd va kaosni chuqur anglashda, insonning ichki dunyosini qamrab olgan ekzistensial yakka-lik hissida, shuningdek, insoniy mavjudotning haqiqiylik va barqarorligiga boʻlgan ishonchning izchil ravishda shubha ostiga olinishi jarayonida namoyon boʻladi.

²¹ Acheson J. John Fowles. – Twayne Publishers, 1998. – P. 45-68.

²² Boccardi M. The Contemporary British Novel Revisited. – Palgrave Macmillan, 2013. – P. 12-35.

²³ Bradbury M. The Modern British Novel. – Penguin Books, 1993. – P. 210.

²⁴ Byatt A.S. Passions of the Mind: Selected Writings. – Chatto & Windus, 1990. – P. 50-71.

²⁵ Murdoch I. The Icon and the Axe. – Chatto & Windus, 1963. – P. 100-123.

²⁶ Ekzistensializm: filosofiya sumyestvovaniya Прогив k Drugomu URL: <http://20v-euro-lit.niv.ru/20v-euro-lit/mirovaya-kultura-xx/ekzistencializm-filosofiya-suschestvovaniya.htm>. (murojaat sanasi:10.03.2022)

Faulz ekzistensializm falsafasidan erkinlik g'oyasini og'ir yuk sifatida qabul qilgan; inson bu dunyoda har doim haqiqiy va yolg'on o'rtasida tanlov qilish holatida bo'ladi. U jamiyat tomonidan singdirilgan qadriyatlarning illyuzor tabiatini anglagan holda, fojiali yakkalikda tasvirlanadi. Shaxsning qadr-qimmati esa taqdirning muqarrarligini tan olish va o'z yo'lini ongli ravishda tanlashda namoyon bo'ladi. Shu bois Faulz, ekzistensialist yozuvchilar singari, eng avvalo ma'naviy inqiroz holatiga qiziqadi. U inson shaxsi tuzilishini, uning jamiyatdagi o'rni va rolini, ruxsat etilgan erkinlik chegaralarini ekzistensializm tajribasiga tayanib tahlil qiladi, biroq uning barcha tamoyillarini so'zsiz qabul qilmaydi.

Jon Faulz romanlari inson mavjudligi muammolarini o'rganish bilan badiiy eksperimentni uzviy ravishda birlashtirgan original yozuv uslubi bilan ajralib turadi. Uning metaprozasi, noodatiy hikoya tuzilmalari va ko'p qatlamli obraz xususiyatlari ekzistensializm falsafasining asosiy g'oyalarini badiiy ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchini esa voqelikning tasodifiyligini, erkinlikning og'irligini va chinakam o'zini yaratish zaruratini anglashga undaydi.

Mazkur jadval Faulzning adabiy faoliyati davomida ekzistensialistik mavzularining rivojlanishi va o'ziga xosligini aks ettiradi:

2-jadval.

Jon Faulz badiiy asarlarida ekzistensializm falsafasining evolyutsiyasi

Bosqich	Asarlar	Ekzistensial mavzular	Rivoya uslubi
Ekzistensial izlanishlar	“Kolleksiyachi” (1963)	– Shaxslarni obyektivlashtirish va g'ayriinsoniylashtirish; – ma'naviy javobgarlik va shaxs erkinligi chegaralari ²⁷	– Birinchi shaxs hikoyasi; – Epistoliar shakl
Ekzistensial noaniqlik	“Afsungar” (1966) “Fransuz leytenantining ayoli” (1969)	– haqiqatning noaniqligi va talqini ko'pligi; – ekzistensial inqiroz va ma'no izlash; – an'anaviy hikoya tuzilmalari va muallifning roliga savol berish ²⁸	– Metaadabiyot usullari, muallifning rivoyatga kirishi va sharhi; – Yagona, aniq haqiqat g'oyasini buzish uchun parallel hikoyalar va ko'p sonlar
Ekzistensial kelishuv	“Daniel Martin” (1977) “Qurtquloq” (1985)	– shaxsiy erkinlik va ijtimoiy-tarixiy determinizmning uyg'unlashuvi; – axloqiy mas'uliyat va ekzistensial tanlovga urg'u; – o'tmish va hozirgi davr o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish ²⁹	– Chiziqli bo'lmagan, parchalangan hikoya tuzilmalari; – Tarixiy va falsafiy elementlarning kiritilishi

²⁷ Huffaker R. John Fowles. – Twayne Publishers, 1980. – P. 45-72.

²⁸ Conradi J. John Fowles. – Methuen, 1982– B. 30-58.; Olshen Barry N. John Fowles. – Twayne Publishers, 1978. –B. 10-40.

1) Ekzistensial izlanish: Faulzning “Kolleksiyachi” kabi dastlabki asarlarida asosiy ekzistensialistik tushunchalarni obyektivlashtirish chegaralariga qaratiladi: shaxsiy erkinlik; 2) Ekzistensial noaniqlik: o‘zining o‘rta davrida Faulzning “Afsungar” va “Fransuz leytenantining ayoli” kabi asarlarida voqelikning noaniqligi, ekzistensial inqiroz va an’anaviy hikoya tuzilmalarining so‘roq qilinishiga chuqurroq kirib boriladi; 3) Ekzistensial tushunchalar Faulzning “Daniel Martin” va “Qurtquloq” kabi so‘nggi davr romanlarida shaxsiy erkinlik hamda ijtimoiy-tarixiy determinizm o‘rtasidagi nozik tadqiqqa, shuningdek, ma’naviy javobgarlikka urg‘u beradi va bunga ekzistensial tanlov deb qaraladi.

Faulzning o‘zi “Fransuz leytenantining ayoli” asarida ta’kidlaganidek, “Yozuvchi – dunyodagi eng erkin inson”³⁰, bu esa muallifning hikoya shakllanishidagi o‘rni va o‘quvchining mazmun yaratishdagi faol ishtirokining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Jon Faulz individual-ijodiy badiiy tafakkurining ekzistensial ifodasi”** nomli ikkinchi bobi uch fasldan iborat bo‘lib, uning birinchi fasli *“Kolleksiyachi” romanida shaxsiyat konsepsiyasi*” deb nomlanadi. Ushbu asar Faulzning 1963-yilda nashr etilgan birinchi romani bo‘lib, tezda katta muvaffaqiyatga erishganligi, roman inson tabiatining murakkabliklarini o‘rganadigan psixologik triller ekanligi haqida fikr bildirilgan. Jon Faulz romanda syujetni tashkil etish va hikoya qilishda o‘ziga xos yondashuvni qo‘llaganki, bu hikoyaning psixologik chuqurligi va keskinligini sezilarli darajada oshiradi. Ikki tomonlama nuqtayi nazardan, chiziqli bo‘lmagan tuzilish va psixologik murakkablikka e’tibor berish orqali Faulz obsessiya, kuch va insoniy munosabatlarning tabiati mavzularini o‘rganadigan jozibali hikoyani yaratadi. Romanning eng hayratlanarli xususiyatlaridan biri bu ikki tomonlama rivoya uslubidan foydalanish bo‘lib, bunda o‘quvchilar voqeani Frederik Klegg va asir Miranda Greyning ko‘zlari bilan his qilishlari mumkin. Bu birinchi shaxs hikoyasi ikkita asosiy qahramon o‘rtasida almashinib, ularning psixologik motivlari va asoslarini ko‘rib chiqish imkonini beradi³¹.

Klegg uchun hikoyaning yagona maqsadi uning nima bo‘lganini tushuntirish qobiliyatidir (va u har doim “oqlash” ma’nosida “tushuntirish” dan foydalanadi). *“Men har doim ma’lum bo‘lishdan nafratlanganman, nima uchunligini bilmayman, men har doim tushuntirishga harakat qilganman, men tushuntirish uchun hikoyalar o‘ylab topishni nazarda tutyapman”* (C. 32). Bu yondashuv kolleksioner tafakkur tarzini aks ettiradi, holbuki Miranda uchun estetik qadriyatlar, shaxsiy erkinlik va chinakamlilik ancha muhimroqdir. Biroq har ikkala qahramon ham o‘z manfaatlari va e’tiqodlari ta’sirida voqelikni idrok etishni buzadi. Masalan, og‘ir betob Miranda haqida so‘zlar ekan, Klegg shunday deydi: *“Bu mening aybim emas edi. Nahotki*

²⁹ Onega S. Form and Meaning in the Novels of John Fowles. – University of North Carolina Press, 1989. – B. 25-60.; Huffaker John R. Fowles. – Twayne Publishers, 1980. – B. 45-72.

³⁰ Fowles J. The French Lieutenant's Woman. – New York: Little, Brown and Company, 1969. – P. 83.

³¹ Ibodullayev Z. Asab va ruhiyat. 4-nashr. Ilmiy-ommabop risola. – T., 2023. – B. 311. URL: <https://asab.cc/jenciklopediya/2020-obsessiya-va-kompulsija-nima.html> (murojaat sanasi: 14.01.2023)

u tushunmasa, men uning tashqi qiyofasiga oshiq bo'lganimni? Menga u shunchaki shamollagandek tuyuldi” (C; 110).

Bobning ikkinchi fasli *“Afsungar” romanida ijodkorning mafkuraviy erkinligi masalasi*” deb nomlanib, ushbu asar Jon Faulz ijodidagi murakkab va jumboqli roman bo'lgani tufayli oson tasniflashga imkon bermasligi tahlil qilingan. Bu asarda psixologik triller, falsafiy izlanish va metanasriy jumboq hammasi birlashgan. Romanda Yunonistonning Praxos orolida bo'lib o'tgan voqea o'qituvchilik kasbini egallagan va o'zini sehrigar deb da'vo qilgan Moris Konchis ismli badavlat hamda eksentrik odam tomonidan uyushtirilgan bir qator sirli va syurreal voqealarga aralashib qolgan yosh ingliz yigiti Nikolay Urfe haqida hikoya qilinadi.

